

SHAHARLARNI REKONSTRUKSIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

v.b.dotsent, Mirzababaeva Saxiba Mirzaakbarovna, talaba Zoxirbek Baxtiyor o'g'li
Farg'ona politexnika instituti, Maxmudov
ORCID 0000-0002-6183-4688, Saxiba1966@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Shaharlarni rekonstruksiya qiliShdagi dolzarb masalalar keltirilgan bo'lib, jamoat transporti tizimlarini loyihalaShtiriSh va zamonaviy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etiSh, Shaharlarimizda hosil bo'lgan kichik jamoat markazlarini loyihalaSh haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shahar, transport, rekonstruksiya, vizual, qulaylik, individual, savdo markazlari, savdo ko'chalari.

Zamonaviy Shahar turar-joy rayonlariga, iShlab-chiqariSh, jamoat majmualariga, dam oliSh mintaqalariga, transport, muxandislik kommunikatsiyalariga bo'linadi. SHahar beto'xtov taraqqiy etadi. Bu taraqqiyot aholi sonini o'zgariShida, o'zlaShtirilgan hududlardan foydalaniShning Shakli, o'lchami, Shiddatida ko'rinadi. SHaharlarning fazoviy muhitining o'zgarib boriShi, ularning ravnaqi va rekonstruksiyasi – bu ijtimoiy va iqtisodiy talablaridagi nomuvofiqlikni doimiy kelib chiqiShiga xizmat qiluvchi ichki qarama – qarShiliklarining o'siShidir.

SHahar rekonstruksiyasi – bu qarShiliklarni echiliShining haqqoniy uzoq davom etuvchi, Shaharlarning yo'lga qo'yilgan tarkibini hamda uning ayrim elementlarini mukammallaShtiriSh, maqsadga muvofiq o'siShini ta'minlaShdir. SHaharlarni rekonstruksiyalashdan asosiy maqsad uni aholining Shaharga bo'lgan o'zgarib boruvchi, Shahar aholisi hayotining maiShiy va dam oliShini, xizmat ko'rsatiSh tizimini yaxShilaSh va quriliSh sifatini oShiriSh bo'yicha talablarini qondiriShdir. Rekonstruksiyalashning ahamiyatga ega bo'lgan jihati bo'lib qimmatli arxitekturaviy-tarixiy merosni asrab-avaylaSh va saqlaSh hisoblanadi. Rivojlanayotgan Shaharlardagi tarixiy muhit-bu xalqning avloddan avlodga etkazib berayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlaridir. SHaharsozlik sa'natida davrlar aloqasi va tutaShmasini qadrlaShda biz nafaqat me'morchilikning buyuk asarlari va obidalarida, balki har bir ko'cha, mahalla, hovli, katta va kichik oddiy binolarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur.

SHaharning ShakllaniShi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, buning natijasida uning arxitekturaviy- rejaviy tarkibi vujudga keladi. Turli Shaharlarda u turlicha bo'lib bir-biriga o'xShamaydi. Mamlakatimizda nodir arxitekturaviy merosga ega bo'lgan eski Shaharlar bilan birgalikda, nodir me'moriy obidalar bo'lmasa ham, o'zining yaxlit rejaviy echimi va davrning o'zgariShlarini o'zida saqlab qolgan Shaharlar mavjud. Bundan taShqari, nisbatan uncha katta bo'lmagan, o'zining individual Shakl-Shamoyiliga ega bo'lgan yangi Shaharlar ham bor. Turlicha tabiiy Sharoitlarda joylaShgan katta va kichik Shaharlar mavjud. Bularning hammasi ularni rekonstruksiyalashda o'ziga xos, alohida yondoShuvni talab etadi.

Transport tarmoqlarini tartibga soliSh rekonstruksiyaning murakkab masalasi hisoblanadi. Eski Shaharlarda vazifasiga ko'ra ko'cha tizimlarining aniq bo'liniShi yo'q; yo'lning maShinalar yuriSh qismi enining kichikligi tufayli ularning o'tkaziSh qobiliyati past, to'xtaSh joylari deyarli yo'q; katta Shaharlarda markaz transport oqimlari, Shu jumladan tranzit transport oqimlari bilan to'lib toShganligini qayd etiSh kerak. Rekonstruksiyalashda birinchi navbatda ko'chalar va magistrallar tizimini ularning vazifasini aniq bo'lgan holda taShkil etiSh zarur bo'ladi. Bunga mavjud yo'llar va yo'lkalarni qizil chiziqlar chegarasida modernizatsiyalaSh, qizil chiziqlar orasidagi hududlarni kengaytiriSh, bir tomonlama harakat ko'zda tutilgan ko'chalar tizimini taShkil qiliSh yo'li bilan eriShiSh zarur. Ko'plab tarixiy Shaharlarimizda transportning asosiy yo'naliShlari markaz orqali o'tgan bo'lib, u erdagi me'moriy yodgorliklarga putur etkaziShi mumkin, ayniqsa katta tranzit maShinalar harakati bunga misol bo'la oladi. SHu sababli, xozirda tarixiy obidalar zich joylaShgan hududlarda

transport harakatini cheklaSh, iloji bo'lsa umuman ularni uzoqroqdan aylanma yo'llar orqali o'tkazib yuboriSh tadbirlari ko'rilmoqda. SHahar markazini transport harakatidan xalos qiliSh, saylgohlar-piyodalar uchun Sharoitlar yaratishi atmosferani turli gazlardan tozalashga ham xizmat qiladi.

Rekonstruksiya Sharoitida Shaharning xizmat ko'rsatishi tizimini mavjud korxonalar negizida taShkil etilishi, ularni zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalash kerak. Yirik supermarketlar, savdo qatorlarini Shahar miqyosidagi korxonalariga aylantirilishi, kichik korxonalar zich joylashgan hollarda ularni cho'zilgan chiziqli savdo qatorlarini Shahar miqyosidagi korxonalariga aylantirilishi, kichik korxonalar zich joylashgan hollarda ularni cho'zilgan chiziqli savdo markazlari yoki savdo ko'chalariga aylantirishi yaxshi natija beradi. Yangi xizmat ko'rsatishi korxonalarini binolarning 1-qavatlarida, uylarga qo'shib qurilgan yoki binolar orasidagi bo'sh joylarda joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

SHaharlarni rekonstruksiyalashda turar joylarga alohida ahamiyat berilishi, ularda to'liq zamonaviy qulayliklar yaratilishi, bunda imkoni boricha uShbu rayon uchun an'anaviy bo'lgan me'moriy muhit saqlab qolinishi va iqtisodiy jixatdan eng maqbul echimlar qabul qilinishi kerak.

SHahar-bu muttasil rivojlanib boruvchi organizm bo'lib, turli Shart- Sharoitlarga bog'liq holda har bir bosqichda o'z qiyofasini saqlagan holda sekin yoki tezroq o'sib boradi. UShbu qiyofa xalqning tarixiy rivojlaniShini aks ettirib, insonga katta ta'sir ko'rsatadi, Vatan xissini uyg'otadi, milliy g'urur tuyg'usini Shakllantiradi, busiz esa vatanparvarlikni tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu sababli ham barcha davrlarda bo'lib o'tgan urushlarda bosqinchilar bosib olingan xalqning milliy ruhini sindirishi uchun me'moriy yodgorliklarni buzgan va yo'q qilganlar.

SHaharning tarixiy markazida yangi, mahobatli jamoat binolarini qurishi uchun loyihachilar uni mavjud obidalar bilan uyg'unligini ta'minlash uchun bor mahoratlarini ishga solishlari talab etiladi. Bunda yangi bino Shakllangan me'moriy kompozitsiyaning bir qismiga aylaniShini ta'minlash zarur.

Rekonstruksiyalashda barcha mavjud vizual (ko'rinish) aloqalarini saqlab qolish hamda yangi ko'rinish nuqtalarini qayta tiklash zarur, chunki me'moriy yodgorlik uShbu karakterli nuqtalardan o'zining bor mahobati bilan ko'rinishi, qabul qilinishi kerak. SHuning bilan birgalikda, tarixiy yodgorlikni ortiqcha bachkanalashtiriSh ham yaramaydi, u o'zining boy mazmuni, ko'rkam va mahobatli ko'rinishi bilan bugungi xayotda faol ishtirok etishi, "yashashi" kerak.

O'zbekistonda Shaharlarni rekonstruksiya qilishi bo'yicha o'ziga xos boy tajriba to'plangan. So'nggi yillarda mamlakatimizdagi Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Qarshi, Urganch, Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon, SHaxrisabz kabi Shaharlarimizda olib borilgan katta miqyosidagi rekonstruksiya-obodonlashtirishi ishlarini bunga yorqin misol tariqasida ko'rsatishi mumkin.

SHaharlar yashayveradi, ularning mutassil raviShda yangilanib borishi-bu tarixiy, texnik va estetik zaruriyatdir. Me'morchilik-san'at bo'lib, umriboqiy obidalar yaratadi, Shu sababli turli davrlarda yaratilgan asarlar keyinchalik ham birgalikda uzoq vaqt xizmat qiladi. Mana Shunda o'ta murakkab muammo vujudga keladi-eski va yangining nafaqat bugun, keyinchalik ham uyg'un holda birgalikda o'zaro yashab ketishi mavjud bo'lishi talab etiladi. SHu sababli, rekonstruksiya zamonaviy Shaharsozlikda nafaqat eskining yangidan tug'iliShi, balki kelajakka e'tibor bilan qarash deb tushunilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zR 22.02.2021 y. O'RQ-676-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining SHaharsozlik kodeksi

2. Mirzaaxmedova U. A. i dr. Nadejnosti I Dolgovechnosti Energoeffektivnye Stroitelnye Konstruksiy //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 48-51.

3. SHNK 2.07.01 – 03 Gradostroitelstvo. Planirovanie razvitiya i zastroyki territoriy gorodskix i selskix naseleennyx punktov. – T.: Goskomarxitektstroy RUz., 2003.
4. SHNK 2.07.01-19 SHaharsozlik. SHahar va qiShloq aholi punktlari hududlarini rivojlantiriSh va quriliShni rejalaShtiriSh